



QADIMGI YOZMA MABALARLARDA SUG'D TARIXIGA OID MA'LUMOTLAR

Norboyev Sarvar

Toshkent davlat texnika universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Markaziy Osiyoning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy jarayonlarida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan Sug‘d tarixi, aholisi va moddiy madaniyatini ilk yozma manbalardagi bayoni tahlil qilingan. Turli yozma manbalar va ilmiy adabiyotlar doirasida Qadimgi Sug‘d aholisining hududiy chegaralari va xalqaro savdo, iqtisodiy munosabatlardagi faol ishtiroki, qo‘shni mamlakatlar bilan o‘zaro munosabatlari, va bu hududning turli manbalarda turlicha nomlanganligi, O‘rta Osiyodagi ilk davlat birlashmali paydo bo‘lganda Sug‘dning o‘rni alohida qayd etib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Sug‘d, Avesto, Ahamoniylar, Aleksandr, sug‘diylar, yozma manbalar.

Sug‘d (Sug‘diyona) yirik tarixiy-madaniy viloyatlardan biri sifatida Markaziy va Uzoq Sharq mintaqasining rivojlanishida muhim o‘rin egallagan. Sug‘diyona – Zarafshon va Qashqadaryo havzasida joylashgan qadimiy, madaniy voxa hisoblanib [1], Markaziy Osiyoning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy jarayonlarida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lib kelgan. Bu mamlakat zardushtiylarning muqaddas kitobi «Avesto»da ham “Gava-Sug‘udalar yashaydigan yurt”, deb ta’kidlangan.

Sug‘d o‘lkasi tarixan bugungi O‘zbekistonning Samarqand, Qashqadaryo, Buxoro viloyatlari, Tojikistonning Panjikent yerlarini birlashtirgan edi [2]. Sug‘diyona Ahamoniylar imperiyasining shimoli-sharqiy chegaralarini tashkil etgan, bu shaharning xarobalari hozirgi kunda Tojikiston Respublikasining Xo‘jand shahri yaqinida joylashgan degan fikrlar ham mavjud [3].



Turli yozma manbalar asosida Sug‘d tarixi bo‘yicha maxsus izlanishlar olib borish XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlariga borib taqaladi. Bu davrda ingliz olimlari V. Tomashek, X. Gibbs, nemis sharqshunosi Y. Markvart, fransuz xitojshunosi E. Shavann, rossiyalik mashhur tarixchi V.V. Bartoldning ishlarida Sug‘d tarixiga ko‘proq e’tibor qaratilishi barobarida o‘lka tarixiy-geografiyasiga ham birmuncha to‘xtalib o‘tishgan.

XX asrning 30-yillaridan boshlab to shu asrning 90- yillarigacha bo‘lgan yarim asrdan ortiq bir davr mobaynida esa S.G. Klyashtorniy, L.N. Gumilev, O.I. Smirnova, V.A. Livshits, L.I. Albaum, A. Beleniskiy, S.K. Kabanov, kabi sovet tarixchilari, shu jumladan, markaziy osiyolik G. G‘ofurov, B. G‘oibov, E.V. Rtveladze, R. Sulaymonov, M. Is’hoqov kabi tarixchi va arxeolog olimlar Sug‘d va undagi hukmdorliklar, ularning geografik joylashuvi masalasiga to‘xtalishgan [4].

Sug‘d atamasi Ahamoniylar hukmdorlar qoldirgan mixxat yozuvlar, xususan Behistun yozuvlarida boshqa davlatlar qatori Sug‘diyona ham eslatib o‘tiladi. Xususan: Ahamoniylar imperiyasining poytaxti Persepolisdagi qirollik saroyi devorlarida Doro I ga bo‘ysungan yerlarning aholisi tasvirlangan bo‘lib, ushbu bitikning 8-qatorida sug‘dliklar qo‘llarida idish-tovoq, mato, hayvon terisi va ikkita qo‘y bilan tasvirlangan.

Naqshi Rustam maqbarasida Doro I ga itoat qilgan xalqalarning suratlari naqshinkor usulda tasvirlangan bo‘lib, unda sug‘diylar va baqtriyaliklar deyarli bir xil kiyim kiyishgani aks etgan, ya’ni tanasiga belbog‘li ko‘ylak, do‘ppiga o‘xshash qalpoq. Ushbu devoriy suratda markaziy osiyo xalqlari uzun soqolli bo‘lib, belida esa akinak bilan tasvirlangan yaqqol ko‘rsatilgan.

Yunon-rim tarixchilaridan O‘zbekistonning qadimgi xalqlari haqida dastlabki ma’lumotlar bergen muarrix Gerodot (mill avv Vasr) bo‘lib, u “Tarix” asarida boshqa xalqlar qatori sug‘diylar va Sug‘d haqida ham eslatib o‘tadi. Uning ma’lumotlariga ko‘ra Sug‘diyona ahamoniylar davlati tarkibiga kirgan bo‘lib,



parfiyaliklar, xorasmiylar va oriylar bilan birligida XVI o‘lka-satrapiyani tashkil tashkil etgan.

Aleksandning rejasiga ko‘ra, uning “g‘alabali yurishlar”i tarixchi va yozuvchilar tomonidan yozib olinishi ko‘zda tutgan holda bir qancha tarixchilarni bu yurishlarga olib boradi bu tarixchilar ichida Aristobulus, Ptolemey, Sitseron bo‘lib, ular bizga qadimgi tariximizni o‘rganishimizda muhim ma’lumotlarni yozib qoldirgan. Aleksandrning sharqqa yurishlari haqida Arrian (milodiy II asr), Kvint Kursiy Ruf (milodiy I asr) kabi tarixchi olimlar ham muhim ma’lumotlar yozib qoldirishgan. Bizgacha yetib kelgan asarlar orasida ayniqsa Arrianning “Aleksandr anabasisi” (Aleksandrning harbiy yurishlari) asari bo‘lib, bu asar 7 kitobdan iborat bo‘lib, unda Aleksandrning shaxsiy maktublari, saroyda saqlanayotgan kundaliklari, yurish qatnashchilari va boshqa qimmatli ma’lumotlar yozilgan [5].

Bu davr haqida ma’lumotlarni shuningdek Strabonning “Geografiya” nomli asarida uchratishimiz mumkin. Strabon yurtimiz qadimgi shaharlari haqida quyidagilarni yozib o‘tgani: “Aytishlariga ko‘ra, Aleksandr Baqtriya va Sug‘diyonada 8 ta shaharga asos solgan va ko‘plarini vayron qilgan. Vayron qilganlari jumlasidan Baqtriyadagi Kariata (bu yerda Kallisfen qo‘lga tushib qamoqqa olingan), Sug‘diyonadagi Marokanda va Kira-Yaksart daryosidagi Kir tomonidan qurilgan oxirgi shahar; bu fors davlatining chekkasi bo‘lgan. “Sug‘diyona ichidan oqayotgan daryoni Aristobulning aytishicha, makedonlar Politimet deb atashgan. Oriylar yeridan oqayotgan Ariy daryosiga o‘xshab bu daryo ham mamlakat yerlarini sug‘orib, dasht va cho‘l o‘lkalariga intiladi va ichida yo‘qolib ketadi” [6].

Qadimgi Xitoy bilan qo‘shti yoki nisbatan yaqin masofada joylashgan hamda u bilan turli munosabatlar doirasida bulgan xalqlarning siyosiy, ijtimoiy, madaniy hayoti xususida xitoy yilnomalaridan yetib kelgan ma’lumotlar muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Jumladan, xitoy yilnomalarining sug‘diylar, Sug‘d o‘lkasi haqidagi xabarlari ham shunday qimmatga ega.



Xitoy manbalarini o‘rgangan mutaxassislarining fikriga ko‘ra, xitoy yilnomalarida Sug‘d tarkibiga kirgan hududlar turli nomlar bilan tilga olinib alohida iyeroglib sifatida yozilganligini aniqlashgan. Xususan, Samarqand (Kan), Buxoro (An, Ansi), Kesh / Shahrisabz (Shi, Shi), Nasaf / Karshi (Nashebo, Nashebolo), Maymurg‘ (Mi), Ishtixon (Sao\ Kushoniya (Xe) hukmdorliklarining geografik joylashuvi tabiat, aholisi, ularning iqtisodiy va siyosiy hayoti hamda madaniy maishiy turmushining ayrim qirralari haqida so‘z yuritiladi [7].

Adabiyotlar ro‘yhati:

1. Согдийские документы с горы Муг. Чтение, Перевод. Комментарий. Вып. II. Юридические документы и письма / Чтение, перевод и комментарии В.А. Лившица. – М.: Издво восточной литературы, 1962; Согдийские документы с горы Муг. Чтение. Перевод. Комментарий. Вып. III. Хозяйственные документы. Чтение, перевод и комментарии М.Н. Боголюбова и О.И. Смирновой. – М.: Изд-во восточной литературы, 1963.
2. Авеста. Видевдот. 1-фрагард, 5-банд: Авесто. Тарихий адабий ёдгорлик. А. Маҳкам таржимаси. – Т.: Шарқ, 2001. – Б. 107; Яна қаранг: Авеста: «Видевдот» китоби. М. Исҳоқов таржимаси. – Т.: ТошДШИ, 2007. – Б. 10.
3. Hersfeld. Altpersische Inschriften. – Berlin. 1938, – Ss. 232-233
4. S.Q.Norboyev., “Sug‘dning qadimgi davr tarixiy geografiyasiga doir ayrim mulohazalar”, Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb masalalari-xalqaro simpozium materiallari. – Tosh-2023, 487-bet
5. S.Q.Norboyev., “Ilk yozma manbalarda Sug‘d”, Ta’lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar. Ilmiy jurnal, Tosh -2023, 31-32 bet
6. Страбон. География в 17 книгах // Перевод Г.А. Стратановского, М.-Л.: Наука. 1964, XI, 2.
7. Малявкин А.Г. Танские хроники о государствах Центральной Азии: тексты и исследование. – Новосибирск: 1989. – С. 77.